PEDAGOGLARNING KASBIY RIVOJLANISHIDA RAQAMLI SAVODXONLIK VA PSIXOLOGIK MOSLASHUVNING O'RNI

Ro'ziboyeva O'lmasoy Yo'ldosh qizi
Alimova Surayyo Zafar qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 4-kurs talabalari
Chirchiq, O'zbekiston
Elektron pochta: roziboyevaolmasoy@gmail.com telefon: +99899 9069220

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagoglarning kasbiy rivojlanishida raqamli savodxonlik va psixologik moslashuvning ahamiyati yoritiladi. Zamonaviy ta'lim sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi o'qituvchilardan yangi ko'nikma va malakalarni talab qilmoqda. Shuning uchun pedagoglarning raqamli savodxonligi nafaqat ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, balki innovatsion metodlarni qo'llash va o'quvchilar bilan samarali muloqot qilishda muhim omil hisoblanadi.. Maqolada pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish va psixologik moslashuvini ta'minlash orqali ta'lim sifatini oshirish masalalari tahlil qilinadi hamda bu jarayonni samarali tashkil etish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: pedagog, kasbiy rivojlanish, raqamli savodxonlik, raqamli kompetensiya, psixologik moslashuv, ta'lim jarayoni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion ta'lim, pedagogik mahorat, zamonaviy ta'lim.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль цифровой грамотности и психологической адаптации в профессиональном развитии педагогов. В условиях современного образования широкое внедрение информационно-коммуникационных технологий требует от учителей новых знаний, навыков и компетенций. Поэтому цифровая грамотность педагогов является важным фактором эффективной организации образовательного процесса, применения инновационных методов обучения и продуктивного взаимодействия с учащимися. В статье анализируются вопросы повышения цифровой грамотности педагогов и обеспечения их психологической адаптации для повышения качества образования, а также предлагаются рекомендации по эффективной организации данного процесса.

Ключевые слова: педагог, профессиональное развитие, цифровая грамотность, цифровая компетенция, психологическая адаптация, образовательный процесс, информационно-коммуникационные технологии, инновационное образование, педагогическое мастерство, современное образование.

Abstract. This article highlights the importance of digital literacy and psychological adaptation in the professional development of teachers. In modern educational conditions, the widespread implementation of information and communication technologies requires teachers to acquire new skills and competencies. Therefore, teachers' digital literacy is considered an important factor in effectively organizing the educational process, applying innovative teaching methods, and maintaining effective communication with students. The article analyzes ways to

improve teachers' digital literacy and ensure their psychological adaptation in order to enhance the quality of education and provides recommendations for organizing this process effectively.

Keywords: teacher, professional development, digital literacy, digital competence, psychological adaptation, educational process, information and communication technologies, innovative education, pedagogical skills, modern education.

KIRISH

Bugungi kunda biz yashab turgan XXI asrning ko'p qirrali zamonaviy texnologiyalari barchamizning kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Bunday sharoitda iqtisodiy soha tarmoqlari bilan bir qatorda boshqa ko'plab sohalar o'z ish faoliyatida ushbu texnologiyalardan unumli foydalanish yo'llarini izlayotganligi bejiz emas albatta. Zamonaviy ta'lim sharoitida pedagoglarga o‘z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishda yangi yondoshuvlarni joriy etishni taqozo qiladi. Raqamli savodxonlik pedagoglarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) samarali foydalanish qobiliyati va bilimlaridan iborat bo‘lib, bu o‘quv jarayonini yangi darajaga olib chiqadi.

Xo'p,raqamli savodxonlik bu o'zi nima? degan savol tug'iladi. Raqamli savodxonlik – bu insonning raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llay olish, axborotni tahlil qilish va raqamli muhitda muloqot qilish qobiliyatini anglatadi. Mamlakatimizda ta'lim tizimini axborotlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limda yangi axborot texnologiyalarni joriy etish masalasi ommalashmoqda. Ta'lim jarayonida o'quvchi yoshlarni internetdan foydalanishi o'quvchilarni o'quv materialining chuqur o'zlashtirilishiga keng imkoniyat yaratib beradi. Vaholanki, bugungi kunda bolalar axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi har qachongidan ham dolzarbroq ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOT TAHLILI VA METODOLOGIYA

Raqamli savodxonlik faqatgina kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bilan cheklanmaydi; u,shuningdek, axborotni baholash, onlayn muloqot madaniyati va kiberxavfsizlik bo‘yichatushunchalarni ham o‘z ichiga oladi. Ko‘plab mamlakatlar raqamli ta'limning ahamiyatini tan olgan, jumladan, O‘zbekiston ham talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik islohotlarni joriy etmoqda.

Pedagoglarning raqamli kompetentsiyalarini rivojlantirishda bir qator nazariy va metodik asoslar mavjud. Interaktiv o‘qitish metodlari va flipped classroom yondoshuvlarini qo‘llashning samaradorligi ta'lim jarayonini jonlantiradi. Biroq, pedagoglarning raqamli kompetentsiyalarini rivojlantirishda duch keladigan asosiy muammolar texnik va moddiy resurslarning yetishmasligi,pedagoglarning raqamli texnologiyalarni qo‘llashdagi tajribasizliklari va o‘qituvchilarning yangi texnologiyalarga moslashishdagi qarshiliklar bilan bog‘liq.Raqamli kompetentsiyalarni rivojlantirish nafaqat o‘quvchilarga, balki pedagoglarga ham yangi imkoniyatlar yaratadi. Pedagoglarning raqamli kompetentsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan kurslar, treninglar va metodik qo‘llanmalar zarur.Bundan tashqari, ta'lim tizimida raqamli resurslar va texnologiyalarni yanada samarali joriy etish muhimdir. Raqamli kompetentsiyani rivojlantirish nafaqat o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshiradi, balki ta'lim jarayonining umumiy sifatini ham yaxshilaydi.

MUHOKAMA

Raqamli savodxonlik quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– kompyuter va mobil qurilmalardan foydalanish

– internet orqali ma’lumot qidirish
– ma’lumotni tahlil qilish va saralash
– onlayn muloqot qilish
– raqamli xavfsizlik qoidalariga rioya qilish

Masalan, pedagog uchun:

– onlayn platformalarda dars o‘tish
– prezentatsiya va elektron materiallar tayyorlash
– raqamli baholash tizimlaridan foydalanish-bularning barchasi raqamli savodxonlikka kiradi.

Psixologik yondashuv - bu insonning ruhiy holati, motivatsiyasi, qiziqishi va moslashuvini hisobga olib ishlash usulidir.

Ta’limda psixologik yondashuv quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– o‘quvchi va pedagogning hissiy holatini tushunish
– yangi texnologiyalarga moslashishga yordam berish
– stress va qo‘rquvni kamaytirish

Bunga misol tariqasida ba’zi pedagoglar yangi texnologiyalardan foydalanishda qo‘rqish yoki ishonchsizlik his qilishi mumkin. Psixologik yondashuv orqali ularga asta-sekin o‘rgatish va qo‘llab-quvvatlashda muhim o’rin tutadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, pedagoglarning kasbiy rivojlanishida raqamli savodxonlik va psixologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish pedagoglarga dars jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va samarali tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, psixologik yondashuv pedagoglarga o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim berish, ularning motivatsiyasini oshirish hamda sog‘lom psixologik muhit yaratishga yordam beradi.

Raqamli savodxonlik va psixologik kompetensiyalarning uyg‘unligi pedagogning kasbiy mahoratini oshiradi, ta’lim sifatini yaxshilaydi hamda o‘quv jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham pedagoglarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va psixologik jihatdan moslashuvchanligini kuchaytirish bugungi ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF5847-sonli Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/4545884
2. To‘raqulov O.X. Axborotlashgan ta’lim muhitida kichik mutaxassislar tayyorlashning ilmiymetodik ta’minotini takomillashtirish (axborot va kompyuter texnologiyalariga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlari misolida). Ped.fan.dokt. ...avtorefer. –T.:, 2017. -64-b.
3. Mamatov D.N. Elektron axborot ta’limi muhitida kasbiy ta’lim jarayonlarini pedagogic loyihalashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). Diss. –T.:, 2017. 186-b.
4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. Ped.fan.dok. ...avtoref. T.:, 2007. 37-b.

5. Ismoilova Z.K. Talabalarning kasbiy pedagogik malakalarini shakllantirish.: Avtoref.diss.ped.fanlari.nomzodi. T.: 2000. 18-b.
6. Safarov T.S. va boshq."Informatika va axborot texnologiyalari"-O'zbeki&on milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti,Toshkent-2006.B-37.